

Salomatlik va xavfsizlik

Biz elektr energiyasi yordamida ishlaydigan turli xil axborot qurilmalaridan foydalanamiz. Bu juda xavfli. Shuning uchun ular bilan ishlashda xavfsizlik qoidalariga rioya qilishimiz kerak.



Planshet yoki mobil telefonni ko'zingizga yaqin tutmang.



Axborot qurilmalarini nam qo'llar bilan ushlamang.



Buzilgan axborot qurilmalaridan foydalanmang.



Axborot qurilmalariga suv tekkizmang.



Axborot qurilmalarini ochmang.



Planshet yoki telefonni rozetkadan uzganda shnuridan tortmang.



1. Rasmlarda bolalarning qanday xavfsizlik qoidalariga rioya qilmayotganligi aks etgan?



1



2



3



4



2. Nima uchun uzoq vaqt davomida telefon va kompyuter o'yinlarini o'ynamaslik kerakligini tushuntiring. Bu sog'lig'ingizga qanday ta'sir qiladi?



3. Savolga javob bering.

- Axborot qurilmalari bilan ishlashda qanday xavfsizlik qoidalariga amal qilish kerak?

